PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARIDA MAXSUS FANLARNI O‘QITIShDA ZAMONAVIY TA’LIM RESURSLARNING O‘RNI

Hakimov A.A.
Tohirov N.N
Mustaqil ilmiy izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim resurslarining o‘rni va o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlashda interfaollikni ta’minlaydigan didaktik vositalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Elektron ta’lim resurslari, professional ta’lim, maxsus fan, o‘quv-didaktik materiallar, multimediali va media vositalar, kompetentli yondoshuv.

Annotation. This article describes the role of modern educational resources in the teaching of special subjects in professional educational institutions and didactic tools that provide interactivity in the training of secondary personnel.

Keywords. E-learning resources, professional education, special science, educational and didactic materials, multimedia and media tools, competency approach.

Аннотация. В данной статье описывается роль современных образовательных ресурсов в преподавании специальных дисциплин в профессиональных учебных заведениях и дидактических инструментов, обеспечивающих интерактивность в подготовке кадров среднего звена.

Ключевые слова. Электронные образовательные ресурсы, профессиональное образование, специальная наука, учебно-дидактические материалы, мультимедийные и медиаинструменты, компетентностный подход.

Hozirgi davrda ilm-fanning jadal taraqqiy etishi va texnologiyalar kun sayin o‘zgarib borishi, informatsiyaning tez kirib kelishi tahlil jarayonini zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalari asosida, o‘quv-didaktik vositalardan foydalanib samarali tashkil etish va o‘tkazish muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Professional ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishda zamonaviy o‘quv-didaktik materiallar, multimediali va media vositalar hamda elektron ta’lim resurslarini yaratish va ularni maqsadli foydalanish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishiladi.

Professional ta’lim muassasalarida zamonaviy o‘quv-didaktik vositalardan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini o‘rganish va tizimini ishlab chiqish orqali o‘quvchilarning fanlarni samarali o‘zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish bilan birga elektron ta’lim reserslaridan foydalanish asosida o‘qitish – o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta’minlaydi.

Maxsus fanlarni o‘qitishda mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslarini ta’lim va tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga qay darajada muvofiq kelishini

aniqlash va ularni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalar bildirish muhim.

Kichik mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy maqsad zarur bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, ularda mustaqil tanlash va qaror qabul qilish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Maxsus fanlardan nazariy bilimlarni elektron ta’lim resurslardan foydalanib o‘qitishda o‘quv materialini mavzu bo‘yicha muammolar qo‘yib, oldin o‘rganilgan texnikaviy bilimlarini takrorlash, o‘quvchi xotirasidan o‘tgan dalillarni faollashtirish yo‘li bilan uni yangi texnikaviy mavzuni o‘rganishga tayyorlaydi. Pedagogik maqsadlarni qo‘yish, mavzuga muvofiq muammoni tanlash, o‘rganilgan ta’rif, qoidalarni takrorlash, mexanizmlarni eslatish maqsadlarini aniq tasavvur etadi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Professional ta’limida kichik mutaxassislarni tayyorlashda maxsus fanlarni chuqur o‘zlashtirish juda muhim, chunki o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilgan, undagi yangiliklarni vaqtida ilg‘ay olgan va o‘z faoliyatiga ijodiy yondoshgandagina o‘quvchilarni o‘z fani bilan qiziqtira oladi va puxta bilim bera oladi.

Hozirgi vaqtda o‘quv jarayonini tashkil etish uchun kompyuterli dastakli vositalar faol ishlab chiqilmoqda. Ko‘plab o‘quv fanlari bo‘yicha elektron darsliklar va mustaqil o‘rganish dasturlari yaratilmoqda. Mana shunday manbalarga qiziqishning ortib borishi multimedia texnologiyalarini paydo bo‘lishi, shuningdek, Internet tarmog‘i va kommunikatsiya vositalarini rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Biroq, elektron o‘qitish resurslarini, ayniqsa, ularni Internet texnologiyalari asosida yaratish murakkab texnologik va metodik masalani o‘rtaga tashlaydi. Bunda elektron o‘qitish resurslarini ishlab chiqishdagi juda katta mehnat sarflari ko‘pincha ularning tezda eskirib qolishi sababli o‘rni qoplanmay qoladi. Lekin shunga qaramay, kompyuterli o‘quv-metodik materiallar industriyasi ularga talabning kuchliligi va ijtimoiy ahamiyati kattaligi sababli tobora kengayib bormoqda.

Hozirda elektron ta’lim resurslar ta’lim tizimining barcha sohalariga jadal sur’atlar bilan kirib kelayotganligi, ular imkoniyatidan samarali foydalangan holda talabalarning o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga e’tibor berish kerakligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, A.A. Abduqodirovning ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan o‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish uchun o‘qituvchi – talaba – kompyuter uchligining o‘quv faoliyatidagi o‘rni va bosqichlarini tahlil qilish zarur ekanligi uqtiriladi [1].

Zamonaviy ta’lim tizimida interfaollikni ta’minlaydigan didaktik vositalar elektron ta’lim resurslari hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida aynan elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, ta’limni individuallashtirish va axborotlashtirish, har bir

o‘quvchi uchun individual ta’lim traektoriyasini belgilab berish, o‘quv jarayoniga kompetentli yondoshuv tamoyillarini joriy etish va o‘quvchilarning faolliligini oshirish imkonini beradi [2].

Bunday ta’lim natijalariga elektron ta’lim resurslarining quyidagi didaktik funksiyalarini joriy etish orqali erishish mumkin:

− o‘quv faoliyatini yangicha shakllarda tashkil etish va an’anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etish ta’minlash;

− ta’lim jarayoni sub’ektlarining aloqadorlik sifatini imkoniyatlarini ta’minlash;

− o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’lim doirasini kengaytirish [3].

Yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib qo‘yilgan pedagogik maqsadga muvaffaqiyatli erishish faqat axborotli-o‘quv muhitida ishlash sharoitida amalga oshirilishi mumkin.[4]

Biz tomondan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maxsus fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslarning ma’lum qismi tuzilishi kasbiy pedagogika talablariga, o‘quvchilarning darslik bilan mustaqil ishlashiga, ularning bilim va ko‘nikmalarini ob’ektiv baholashga mos kelmaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, mavjud muammolarni yechishning asosiy yo‘llaridan biri Professional ta’lim muassasalari uchun elektron ta’lim resurslar yaratish jarayoni tashkil etish va boshqarishning yagona muvofiqlashtirilgan tizimini yaratish, ta’lim turlari orasida maxsus fanlar o‘quv qo‘llanmalarining o‘zaro uzviyligi ta’minlashga erishish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukadыrov A.A., Eshnazarova M.Yu. Elektronnыe uchebniki v sisteme distansionnogo obrazovaniya // Pedagogika jene psixologiya. – Almata, 2010. - №4. –B. 184-187.

2. Isupova N. I. Metodicheskie osobennosti primeneniya elektronnыx obrazovatelnыx resursov. Sbornik nauchnыx trudov Sworld. 2012. T. 23. № 4. S.

3. Robert I. V., Panyukova S. V., Kuznesov A. A: i dr. Informatsionnыe i kommunikatsionnыe texnologii v obrazovanii / Uchebno-metodicheskoe posobie dlya pedagogicheskix vuzov. M., 2006, 259 s.

4. Abduraimov Sh.S. va boshqalar. “Kasb-hunar kollejlarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish”. “Ta’limni axborotlashtirishning zamonaviy interfaol texnologiyalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya 1-tom, Toshkent-2015, 45-46 betlar.